

GEOGRAFIYANI O‘QITISHDA VIDEO DARSLARDAN FOYDALANISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Tabiiy geografiya
kafedrasi professori, p.f.d., Musayev Jaxongir Payazovich*

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti Arabboyev
Asliddin Rafiqjon o‘g‘li*

Annotatsiya: Geografiya fanini o‘qitishda videodarslardan foydalanish zamonaviy pedagogik texnologiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada videodarslarning o‘quv jarayonidagi o‘rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Videodarslar orqali geografik jarayonlarni vizual va dinamik tarzda tushuntirish mumkinligi ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, videodarslar o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va murakkab mavzularni oson tushunishlariga yordam beradi. Videodarslarni an’anaviy o‘qitish usullari bilan integratsiya qilish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: geografiya, videodars, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion o‘qitish, vizual materiallar, ta’lim samaradorligi, mustaqil fikrlash, interaktiv darslar, didaktik vositalar, o‘quv jarayoni.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИДЕОУРОКОВ В ОБУЧЕНИИ ГЕОГРАФИИ

*Профессор кафедры естественной географии национального
университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,
п.ф.д., Мусаев Джахангир Паязович*

*Магистрант Национального университета Узбекистана имени Мирзо
Улугбека Араббоев Аслиддин Рафикжан оглы*

Аннотация: использование видеоуроков в преподавании географии – одна из современных педагогических технологий. В данной статье будет проанализирована роль и эффективность видеоуроков в учебном процессе. Подчеркивается, что с помощью видеоуроков географические процессы можно объяснить визуально и динамически. Результаты исследования показали, что видеоуроки могут помочь учащимся развить интерес к науке, развить независимое мышление и легко понять сложные темы. Интеграция видеоуроков с традиционными методами обучения способствует повышению эффективности обучения.

Ключевые слова: география, видеоурок, современные педагогические технологии, инновационное обучение, наглядные материалы, эффективность обучения, самостоятельное мышление, интерактивные уроки, дидактические средства, учебный процесс.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF USING VIDEO CAMERAS IN TEACHING GEOGRAPHY

*Professor of the Department of natural geography of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, p.f.d., Musayev Jaxongir
Payazovich*

*Master of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Arabboyev Asliddin Rafikjon son*

Annotation: The use of video cameras in the teaching of geography is considered one of the modern pedagogical technologies. This article analyzes the role and effectiveness of video cameras in the educational process. It is argued that

it is possible to explain geographical processes visually and dynamically through video cameras. The results of the study showed that video lessons help students to increase their interest in science, develop independent thinking and easily understand complex topics. Integrating videodars with traditional teaching methods serves to improve educational performance.

Keywords: geography, videodars, modern pedagogical technologies, innovative teaching, visual materials, educational efficiency, independent thinking, interactive lessons, didactic tools, educational process.

KIRISH

Zamonaviy davrda ta'lim sohasida texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan dars jarayonlarini tashkil etish usullari ham keskin o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda an'anaviy dars usullari bilan bir qatorda yangi, innovatsion metodlardan keng foydalanilmoqda. Bularning orasida videodarslar alohida o'rin tutadi, chunki ular o'quvchilarni bilim olish jarayoniga faol jalb qilish, ularning qiziqishini uyg'otish va murakkab mavzularni tushunarli qilib berish imkoniyatini yaratadi. Geografiya kabi tabiat va inson faoliyatini o'rganuvchi fanlarni o'qitishda videodarslarning ahamiyati ayniqsa katta, chunki bu fan ko'plab vizual tasvirlar, grafikalar, xaritalar va real hayotdagi misollarni talab qiladi.

Geografiya fanining mohiyati shundaki, u Yer sayyorasi, uning tabiiy resurslari, iqlimi, atrof-muhit muammolari, demografik jarayonlar va boshqa ko'plab mavzularni o'z ichiga oladi. Bu mavzularni faqat kitoblar va matnlar orqali tushuntirish qiyin, chunki ko'plab geografik jarayonlar va hodisalar dinamik va vizual tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, vulqon otilishi, zilzila, dengiz to'lqinlari, iqlim o'zgarishi kabi tabiiy hodisalarni faqat matn orqali tushuntirish o'quvchilar uchun noaniq va qiyin bo'lishi mumkin. Shuning uchun videodarslar bu jarayonlarni jonli va tushunarli tarzda ko'rsatish imkoniyatini beradi [10].

Videodarslarning geografiya fanini o'qitishdagi ahamiyati shundaki, ular o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni balki amaliy misollar, real hayotdagi hodisalar va geografik obyektlarni ko'rish imkoniyatini beradi. Bu esa

o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, ularning bilim darajasini oshirish va mavzuga bo'lgan qiziqishini uyg'otishga yordam beradi. Bundan tashqari, videodarslar orqali o'quvchilar dunyoning turli burchaklaridagi geografik obyektlarni, madaniyatlarni va tabiiy hodisalarni ko'rishlari mumkin. Bu ularning bilimlarini kengaytiradi va global miqyosda fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Geografiyani o'qitishda videodarslardan foydalanish masalasini o'rganishda turli adabiyotlar, ilmiy maqolalar va monografiyalardan foydalanildi. Mazkur adabiyotlar o'rganilib, videodarslarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilindi.

O'zbekistonda geografiya o'qitish metodikasi sohasida XX-asrning oxiri va mustaqillik yillarida yirik olimlar yetishib chiqdi. Geografiya o'qitish metodikasi sohasida O.Mo'minov, H.Vaxobov, R.Qurbonniyozov, P.Musayev, P.G'ulomov, G'.Pardayev, D.Tojiboyeva, A.Yo'ldoshev va boshqalar katta tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Geografiyani o'qitish metodikasi bo'yicha juda ko'plab universitetlarda olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib bormoqda. Bugungi kunga qadar umumta'lim maktablari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlashda N.Dolimov, O.Mo'minov, T.Abdullayeva, P.Musayev, P.G'ulomov, H.Vaxobov, A.Qayumov, P.Baratov, M.Mamatqulov, M.Mirakmalov, J.Musayev, N.Safarova, A.Abdulqosimov, R.Qurbonniyozov, A.Soatov, Sh.Sharipov, M.Tillaboyeva va boshqalar o'zlarining beminnat hissalarini qo'shganlar.

D.Tojiboyeva, A.Yo'ldoshevlar tomonidan Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi darsligida B.Blum "bilim olish darajasi ma'lum iyerarxiya tarzida joylashib, har bir bosqich avvalgisiga qaraganda murakkab hamda avvalgi bosqichlarni ham o'z ichiga oladi. Ya'ni bilim har bir yangi pog'onaga ko'tarilar ekan, albatta, avvalgi bosqichni ham takrorlash lozim bo'ladi. Ular quyidagilar: 1.Bilish; 2.Tushunish; 3.Qo'llash; 4.Tahlil qilish; 5.Sintez; 6.Baholash" [5].

Ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etish haqida A.Abduqodirov tomonidan keltirilgan ma'lumotlar geografiya fanida zamonaviy o'qitish

usullarining samaradorligi haqida muhim dalillarni taqdim etadi. Ushbu manbada ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, jumladan, video va multimediya resurslaridan foydalanish bo'yicha aniq tavsiyalar keltirilgan [3].

Geografiya o'qitish metodikasi bo'yicha H.Sh.Djuraboyeva, K.Boymirzayev, R.Y. Xoliqov tomonidan yozilgan o'quv-uslubiy majmua esa geografiya darslarida vizual vositalardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu manbada xaritalar, tasviriy materiallar va interaktiv taqdimotlar orqali o'quvchilarning bilim olish jarayoni yaxshilanishi mumkinligi qayd etilgan [4].

P.Musayev va J.Musayev tomonidan chop etilgan 8-sinf geografiya darsligi ham ushbu mavzuga oid qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu darslikda mavzularni vizual materiallar bilan boyitish, ayniqsa, videoresurslardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim olish jarayonini tezlashtirish va chuqurlashtirish mumkinligi qayd etilgan [9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti (<https://stat.uz/uz/>) ta'lim tizimida qo'llaniladigan statistik ma'lumotlarni taqdim etadi. Mazkur sayt orqali geografiya fanida statistik ma'lumotlarga asoslangan videodarslar yaratish imkoniyati mavjud. Statistika ma'lumotlarining vizualizatsiyasi orqali o'quvchilar mavzularni tezroq tushunib olishi va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi mumkin [2].

N.N.Baranskiy tomonidan chop etilgan "Ekonomicheskaya geografiya v sredney shkole" kitobi geografiyani o'qitishda iqtisodiy va ijtimoiy omillarni hisobga olish muhimligini ta'kidlaydi. Ushbu manbada videoresurslardan foydalanishning ilmiy asoslari ko'rsatilib, geografiya darslarida zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati haqida batafsil fikrlar bildirilgan [12].

E.E.Gorshunova tomonidan chop etilgan maqolada esa maktab o'quvchilarining axborotga bo'lgan tanqidiy munosabatini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Videodarslarning tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga qanday hissa qo'shishi muhokama qilingan [13].



Yuqoridagilarning fikriga ko'ra bugungi kunda oltita iyerarxiya hozirgi kunda o'z ifodasini ko'rsatmoqda. Aynan, biz tayyorlagan videodarslarning ham

asosi sifatida 8-sinf O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi maxsus darslik sifatida umumta’lim maktablarida bevosita o‘qitilmoqda. Bilish bu – o‘quvchining dars davomida bilimlarni egallashidir. Lekin bu bilimlar tushunish orqali mustahkamlanmasa ya’ni atroflicha hayotiy misollar bilan boyitilmas ekan, bu samara bermaydi. Agar tushungandan keyin biz mavzu yuzasidan videodars sifatida bilimlarni amaliyotda qo‘llasak, bo‘ladi. Qo‘llagan bilimlarimiz o‘quvchilarning ko‘z o‘ngida diagramma, gistogramma, kartogramma, gologramma kabi infografik va zamonaviy bilimlar bilan boyitilgan videodarslarni tahlil qilsak o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlari paydo bo‘ladi. Bugungi kunda O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida kuzatish, tizimli tahlil, statistik tahlil, modellashtirish, taqqoslash kabi bir qator usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Birinchi navbatda, o‘qituvchining vaqtini tejab qolamiz. Ikkinchi navbatda, mustaqil fikrlash paydo bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytsak, analiz sintezga aylanadi.

NATIJALAR

Videodarslar — bu o‘quv materiallarini vizual va audio vositalar orqali yetkazish usuli. Ular o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni balki amaliy misollar, grafikalar, animatsiyalar va real hayotdagi hodisalarni ko‘rsatish orqali mavzuni yanada chuqurroq tushunish imkoniyatini beradi. Geografiya fanida, masalan, tabiiy hodisalar (vulqon otilishi, zilzila, iqlim o‘zgarishi), geografik obyektlar (dengizlar, tog‘lar, cho‘llar) va xaritalar bilan ishlash kabi mavzular videodarslar orqali aniqroq va qiziqarli tarzda taqdim etilishi mumkin.

O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini (8-sinf) o‘qitishda quyidagi mavzular tanlab olindi.



Yuqoridagi videodarsda O'zbekistonda yoqilg'i qazib olishning o'zgarishi (2000-2023-yillar kesimida) berilgan. Ushbu videorolik vizualizatsiya imkoniyatlari juda kengdir. Buning metodik tomonlarini quyidagicha yoritish mumkin.

1.Toshko'mir, gaz va neft qazib olish berilgan. Videodarsdan shuni bilish mumkinki, 2000-yildan keyin ko'mir qazib chiqarishning keskin oshganligi, gaz qazib olish ham asta o'zgarganligi va neft qazib chiqarish esa keskin tushib ketganligini ko'rish mumkin.

2.Vizualizatsiya jarayoni va xilma-xil ranglar o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

3.Ranglarning statistik ma'lumotlar bilan o'zgarish dinamikasi o'quvchilarning eslab qolish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4.Jarayonda kechayotgan voqea-hodisaga o'zining mustaqil fikrini berish qobiliyati rivojlanadi.

5.O'quvchi darslik ma'lumotlaridan tashqari asosiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan izlash, taqqoslash, tizimli tahlil qilish, statistik ma'lumotlar bilan ishlaydi. O'ziga kerakli ma'lumotlar(axborotlar) bilan erkin tahlil qilishni o'rganadi.

Yoqilg'i turi	1 kg yoqilg'i yonganda chiqadigan issiqlik		Issiqlik koeffitsienti
	Joulida	Kaloriyada	
Tabiiy gaz	$4,4 \cdot 10^7$	$10,6 \cdot 10^6$	1,5
Neft	$4,4 \cdot 10^7$	$10,6 \cdot 10^6$	1,5
Toshko'mir	$2,9 \cdot 10^7$	$7,0 \cdot 10^6$	1,0
Qo'ng'ir ko'mir	$1,3 \cdot 10^7$	$3,1 \cdot 10^6$	0,45
Yonuvchi slanes	$1,8 \cdot 10^7$	$2,1 \cdot 10^6$	0,30
Torf	$1,4 \cdot 10^7$	$3,4 \cdot 10^6$	0,48
Quruq o'tin	$1,0 \cdot 10^7$	$2,4 \cdot 10^6$	0,34

22-rasm. Turli xil yoqilg'ilarning yonish issiqligi.

Ma'lumotlar 8-sinf geografiyasi darsligidan olindi.

6.O'qituvchi ko'rsatmasiga asosan, rasmiy veb-saytlardan mavzuga oid yangiliklarni kuzatib borish va o'z fikrini og'zaki bayon qilish ko'nikmasi oshadi.

7.O'qituvchi qisqa vaqt ichida mavzuni asosiy mazmun-mohiyatini zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asosida, raqamlar, foizlar, yoritib berishda juda ham katta imkoniyatga egadir.

8.O'qituvchi mavzuni tushuntirish davomida o'quvchilarning fikri va dunyoqarashi to'liq dars jarayoniga qaratiladi.

9.O'qituvchi videodarsdagi jarayonlarni o'quvchilarga qiziqarli va tezkor savollar bilan faollashtira oladi.

10.O'z Vataniga bo'lgan mehr-muhabbat, sadoqat kabi tuyg'ular shakllanadi.

MUHOKAMA

Yuqoridagi videodarslarning imkoniyatlari o'z isbotini topib bormoqda. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi (8-sinf) kursida o'qitilishi jarayonida 30 nafar o'quvchilar o'rtasida tadqiqot amalga oshirildi. O'zbekistonning yoqilg'i qazib olish, Emigrantlar (ko'chib ketganlar), Immigrantlar(ko'chib kelganlar), tug'ilish va o'lim darajasi (1991-2023-yillar) rasmiy tasdiqlangan stat.uz saytidan olingan ma'lumotlari vizualizatsiya orqali namoyish etildi. O'quvchilarning darsga faol qatnashish darajasi avvalgi 15-20 foizdan 50 foiz natijasiga erishildi. Darsga bo'lgan qiziqishi oshdi. Dars tahlillariga tajribali pedagog-o'qituvchilar jalb qilindi.

Videodarslarning geografiya fanini o'qitishdagi afzalliklari sifatida quyidagilar qayd etish mumkin:

Vizual tushuncha: Geografiya fanida ko'plab mavzular vizual tasvirlarsiz tushunish qiyin. Videodarslar orqali o'quvchilar tabiat hodisalarini, geografik jarayonlarni va joylarning xususiyatlarini ko'z oldida ko'rishlari mumkin.

Qiziqishni oshirish: Videolar o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi va ularni mavzuga qiziqtiradi. Bu esa o'rganilayotgan materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Murakkab mavzularni soddalashtirish: Geografiyaning ba'zi mavzulari (masalan, atmosfera qatlamlari, tektonik plitalar harakati) murakkab bo'lishi mumkin. Videodarslar orqali bu mavzular animatsiyalar va grafikalar yordamida tushunarli qilib beriladi.

Real hayot bilan bog'lanish: Videolar orqali o'quvchilar dunyoning turli burchaklaridagi geografik obyektlarni, madaniyatlarni va tabiiy hodisalarni ko'rishlari mumkin. Bu ularning bilimlarini kengaytiradi va global miqyosda fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, geografiya fanini o'qitishda videodarslardan samarali foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Geografik tushunchalarning vizual anglanishi yaxshilandi – Videodarslar orqali murakkab geografik jarayonlar, relyef shakllari, iqlim o'zgarishlari va tabiiy

hodisalar aniq va ravshan tasvirlanganligi sababli, o'quvchilar ularni osonroq tushunishdi.

O'quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasi oshdi – An'anaviy dars usullariga nisbatan, videodarslar orqali taqdim etilgan materiallar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam berdi. O'quvchilar video orqali real geografik manzaralarni ko'rib, o'z fikrlarini yanada mustahkamlashdi.

Tashqi muhitni idrok etish qobiliyati kuchaydi – Videodarslar yordamida geografik ob'ektlarning joylashuvi, tabiiy zonalar va iqlim turlari haqidagi bilimlar chuqurlashdi. O'quvchilar turli mintaqalar geografiyasini virtual sayohat orqali o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

O'quv jarayoni interaktiv va samarali bo'ldi – Videodarslarda interaktiv elementlarning qo'llanilishi (masalan, virtual xaritalar, animatsiyalar, simulyatsiyalar) geografik ma'lumotlarni tez va samarali o'zlashtirishga xizmat qildi.

O'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari rivojlandi – Videodarslardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil ravishda o'z ustida ishlash imkoniyatini kengaytirdi. Ular istalgan vaqtda videodarslarni takroran ko'rib, tushunmagan joylarini qayta o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

O'qituvchilarning dars jarayonidagi samaradorligi oshdi – Videodarslardan foydalanish o'qituvchilarga murakkab mavzularni tushuntirishda katta yordam berdi. Natijada, pedagoglar o'quvchilarga mavzuni yanada chuqurroq yoritib bera oldilar.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, geografiya fanini o'qitishda videodarslardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va ularning bilimlarini amaliyot bilan bog'lashda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

Bugungi zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalar taraqqiy etgan davrda fanlararo integratsiya masalasi va o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini orttirish kun tartibidagi muhim masala bo'lib qolmoqda. Bu faqat

o‘quvchidan emas, balki, o‘qituvchidan ham fan yangiliklari bilan muntazam tanishib o‘z ustida ishlab bormog‘i kerak.

Sohaga oid xalqaro va Respublikamizdagi pedagogik adabiyotlar puxta o‘rganib chiqildi va quyidagi tavsiyalar muallif tomonidan ishlab chiqildi.

- O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi(8-sinf)ni o‘qitishda zamonaviy axborot-texnologiyalardan unumli foydalanish;

- Uzluksiz o‘quv jarayonini olib borishda asosiy e‘tiborni o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishga e‘tibor qaratish

- 8-sinf geografiyasini o‘qitishda fanning asosiy fundamental tadqiqot metodlari: statistik ma’lumotlar bilan ishlash, kuzatish, taqqoslash, tizimli tahlil etish, og‘zaki bayon etish kabi metodlarni qo‘llashni o‘rgatish.

O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi(8-sinf) ni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarni qo‘llab, o‘quv jarayoni olib borilsa, o‘quvchilarning qiziqishi geografiya faniga qaratiladi. Ularda statistik ma’lumotlar bilan ishlash jarayonida eng muhim tadqiqot metodlari hisoblanmish tizimli-tahlil etish, taqqoslash, kuzatish, o‘quv adabiyotlari bilan ishlash, og‘zaki bayon etish kabi metodlar bilan ishlash ko‘nikmasi ortadi va axborot-kommunikatsiyalari bilan ishlash va fanga oid ma’lumotlarni topish malakasi rivojlanadi.

Shunday qilib, geografiyani o‘qitishda videodarslardan foydalanish nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki o‘quvchilarning ijodiy va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ushbu metodning yanada takomillashtirilishi va turli pedagogik texnologiyalar bilan integratsiya qilinishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-sonli qaror “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. <https://lex.uz/uz/docs/-6600390>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/>
3. Abduqodirov A. Ta’limda innovasion texnologiyalar. – T.: “Iste’dod”, 2008. -180 b.
4. Djuraboyeva H.Sh, Boymirzayev K., Xoliqov R.Y. “Tabiiyot va geografiya o‘qitish metodikasi” o‘quv uslubiy majmua. Toshkent-2020
5. D.Tojiboyeva, A.Yo‘ldoshev. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Darslik. T.; “Aloqachi”. 2009, 568 bet.
6. Musayev J. Darslik – didaktik majmuadir// Umumiy o‘rta ta’lim tizimini rivojlantirish istiqbollari (Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari). T. O‘zPFITI 2006 yil. 280-284 betlar.
7. Musayev J.P. Mustaqil fikrlashga yo‘naltirilgan o‘quv materiallarini modellashtirish texnologiyasi. “Maktab va hayot” jurnali, 2008 yil, 7-8 son. 11-12-betlar.
8. Musayev P. Maktab geografiya darsliklarini yaratish mezonlari. Toshkent, 1994. O‘zPFITI, - 14 bet.
9. Musayev P., Musayev J. Geografiya. (O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). 8-sinf o‘quvchilari uchun darslik. T.: “Sharq”, 2019. 176 b.
10. Musayev P., Musayev J. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasidan o‘qituvchi kitobi. Metodik qo‘llanma. T.: «Ma’rifat-madadkor», 2003. 124 b.
11. Баранский Н.Н. Экономическая география в средней школе. Экономическая география в высшей школе. [Pdf-23.4М] Сборник. – М.: Государственное издательство Географической литературы (Географгиз), 2020.

12. Горшунова Е.Э. Исследование критичности отношения школьников к получаемой информации Текст. / Е.Э.Горшунова // Школьные технологии. - 2002.- №4.-с. 76-78.